

## Mahallada tadbirkorlik rivojlansa, aholi turmushi farovonlashadi

Bugungi kunda mamlakatimizda inson manfaati oliy qadriyat darajasiga ko'tarilib, barcha davlat idoralari faoliyatida aholi murojaatlari bilan ishslashning mutlaqo yangicha tizimi yaratilgan.

Ma'lumki, "O'zbekiston-2030" strategiyasida "drayver" sohalarni rivojlantirish va hududlar salohiyatidan to'liq foydalanish ko'zda tutilgan bo'lib, 2030 yilga qadar mamlakatimiz iqtisodiyotini ikki barobar oshirib, "daromadi o'rtachadan yuqori davlatlar" qatoriga kirish belgilangan. Shu maqsadda yurtimiz bo'ylab hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Har bir shahar yo tumanning obodligi mahalladan boshlanadi, deganlaridek, Rishton tumanida ham tuman hokimi va sektor rahbarlari tomonidan aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish orqali ularning daromadini oshirish, yangi ish o'rirlari yaratish, ishsiz fuqarolarni biror faoliyat turi bilan band qilish, shuningdek har bir xonadonda tadbirkorlik muhitini shakllantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Xususan, xonadonlar kesimida talab, taklif va ehtiyojdan kelib chiqib, biznes loyihalari taklif qilinmoqda. Yoshlarning tadbirkorlikka ilk qadam qo'yishiga ko'maklashilmoqda.

Bugun mahallalarga biriktirilgan har bir mas'ul xodim xonadonma-xonodon yurib, fuqarolarning yashash tarzi, shug'ullanayotgan ishi bilan qiziqib, ularning murojaatlarini eshitmoqda, muammolarini o'rganmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, bugun yurtimizda izchil amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi o'laroq, odamlarning turmush sharoiti yaxshilanib, moddiy farovonlik ta'minlanmoqda. Ishsizlar soni keskin kamayib, mahallalarda yangi yo'naliishlarda kichik tadbirkorlar ko'paymoqda.

Xususan, mahallalarda g'ayrat-shijoat bilan mehnat qilayotgan tadbirkor, usta-dehqon, keksa-yu yosh, barcha-barchani mushtarak maqsad - jondan aziz Ona-Vatanimizni yanada taraqqiy ettirish istagi birlashtirgan, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

### **Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati**

2025-01-14 12:02:53